

2020-yil 5-avgust

“O'zkimyosanoat” aksiyadorlik jamiyati yangi loyihalarni amalga oshirish bo'yicha hamkorlikni taklif etadi



“O'zkimyosanoat” aksiyadorlik jamiyati “Angren” ko'mir konidan foydalanishda paydo bo'lgan texnogen chiqindilarni qayta ishlash bo'yicha davlat-xususiy sheriklik asosida qo'yidagi loyihalarni amalga oshirish bo'yicha hamkorlikni taklif etadi.

1. Janubiy Korea texnologiyasi asosida

- tsement xom-ashyosi;
- yo'l qurilishida ishlatish uchun to'ldiruvchilar;
- engil to'ldiruvchilar ishlab chiqarish.

2. Polsha texnologiyasi asosida

Certyd (engil to'ldiruvchi)ni ishlab chiqarish hamda qo'shimcha ravishda yuqori quvvatli issiqlik energiyasi;

Certyd (engil to'ldiruvchi)ning qo'llanish sohasi

- engil beton;
- engil yig'iladigan qurilish komponentlari;
- issiq pol va ishlab chiqarish potoloklari;
- termoizolyatsiya qoplamasi;
- gidroponika uchun substrat ishlab chiqarish.

3. Rossiya Federatsiyasi va boshqa xorijiy korxonalar texnologiyasi asosida:

Suvko'mir smola yonilg'isi (vodougolnoe toplivo) ishlab chiqarish.

Qo'llanilish sohasi:

- TESlarda yonilg'i sifatida;
- g'isht va ohak pishirish uchun va boshqa sohalarda;
- issiqxonalarda isitish tizimlari uchun yonilg'i sifatida;
- tsement ishlab chiqarishda yonilg'i sifatida.

4. "Supergumus" ekologik toza organomineral o'g'itni ishlab chiqarish.

Ushbu o'g'it tarkibi:

- 21% organik moddalar (Tyurin bo'yicha);
- R_2O_5 - 16 mg/kg;
- K_2O - 100 mg/kg.

Gumus moddalarining tarkibi:

- gumus kislotalari jami 5,7%;
- shundan 3,4% gumin kislotalari;
- 2,3% fulvokislotalar.

Yuqorida keltirib o'tilgan loyihalarga qo'shimcha ravishda yangi loyihalar bo'yicha takliflar mavjud bo'lsa o'rganib chiqishga hamda ushbu loyihalarni hamkorlikda amalga oshirishga tayyormiz.

Takliflar va hamkorlik bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlarni "O'zkimyosanoat" AJ rasmiy veb-sayti <https://uzkimyosanoat.uz> yoki +998781407471 telefon raqami orqali olishingiz mumkin. Shuningdek, o'z takliflaringizni innovatsiya@uks.uz elektron pochta manzili orqali yuborishingiz mumkin.

Biz siz bilan hamkorlik qilishdan mamnunmiz! Tabiatni birgalikda asraymiz!

source:

"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati

<https://new.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/angren-coal>